

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA VATANPARVARLIK VA AJDODLARGA HURMAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Jo'rayeva Rashida Abduraximovna

Namangan davlat pedagogika instituti

*Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi
magistranti*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik va ajdodlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishning pedagogik asoslari, metodik yondashuvlari hamda samarali usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba hamda tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tarixiy meros, milliy qadriyatlar va buyuk ajdodlar faoliyatini o'quv jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarda milliy g'urur va vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirib, ularning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, ajdodlarga hurmat, boshlang'ich ta'lim, milliy qadriyatlar, tarbiya metodikasi, pedagogik yondashuv.

METHODOLOGY FOR FORMING A SENSE OF PATRIOTISM AND RESPECT FOR ANCESTORS IN PRIMARY STUDENTS

Abstract: this article analyzes the pedagogical foundations, methodological approaches, and effective methods of forming patriotic feelings and respect for ancestors among primary school students. In the research process, pedagogical observation, interviews, pedagogical experiment, and analysis methods were used. The results show that integrating historical heritage, national values, and the activities of great ancestors into the educational process plays an important role in developing students' national pride and devotion to their homeland. In addition, the use of interactive teaching methods increases students' interest in the subject and develops their independent thinking skills. The article provides methodological recommendations for effectively organizing patriotic education in primary education.

Keywords: patriotism, respect for ancestors, primary education, national values, educational methodology, pedagogical approaches.

МЕТОДОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА И УВАЖЕНИЯ К ПРЕДКАМ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: в данной статье анализируются педагогические основы, методические подходы и эффективные методы формирования у учащихся начальных классов чувства патриотизма и уважения к предкам. В ходе исследования были использованы методы педагогического наблюдения, беседы, педагогического

эксперимента и анализа. Результаты показали, что интеграция исторического наследия, национальных ценностей и деятельности великих предков в образовательный процесс играет важную роль в формировании у учащихся чувства национальной гордости и любви к Родине. Использование интерактивных методов обучения способствует повышению интереса учащихся к учебному материалу и развитию их самостоятельного мышления. В статье разработаны методические рекомендации по организации патриотического воспитания в начальной школе.

Ключевые слова: патриотизм, уважение к предкам, начальное образование, национальные ценности, методика воспитания.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyoti yosh avlodning ma'naviy yetukligi, milliy o'zligini anglash darajasi va vatanga sadoqat hissi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi shaxs kamolotining dastlabki davri bo'lib, bu davrda shakllangan qadriyatlar kelajakdagi fuqarolik pozitsiyasining poydevorini tashkil etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish jarayonida tarixiy meros, milliy an'ana va ajdodlar qoldirgan boy madaniy meros muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi. O'quvchilar buyuk ajdodlar faoliyati, ularning ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvi sohasidagi xizmatlari bilan tanishish orqali o'z millati bilan faxrlanish, tarixiy xotirani qadrlash kabi tuyg'ularni shakllantiradilar.

Pedagogika fanida vatanparvarlik tarbiyasi masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ajdodlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishning metodik jihatlari doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi. Chunki zamonaviy ta'lim jarayoni innovatsion metodlar, axborot texnologiyalari hamda interfaol pedagogik yondashuvlarni talab etadi.

Binobarin, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik deganda, avvalo, el-yurt manfaati yo'lida fidokorona xizmat qilish, har doim el-yurt manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish tushuniladi[1, 5-b.]

Vatan tuyg'usi, Vatan sharafiga, Vatan qadr-qimmatini teran anglab yetish

asosida qaror topgan buyuk da'vatkor kuch bu vatanparvarlik tuyg'usidir. Inson o'z Vatanini sevishi, vatanparvarlik olis tarixdan to bugungi kunimizgacha ustuvor ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Buyuk vatandoshlarimizning jasorati, e'zosi bu tuyg'uni anglab yetishimizda bizga so'nmas mayoq bo'lib xizmat qilmoqda.

Vatan, xalq bor joyda vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'ladi. Bu tuyg'u insonni jasoratga, ezgulikka halol mehnatga da'vat etadi. Millatni millat bo'lib shakllanishida turli hayot to'fonlaridan omon saqlab qoladigan ham vatanparvarlik tuyg'usidir.

Vatanparvarlik - kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik — inson ma'naviy yetukligining yuksak mezonlaridan istiqlool mafkurasining negizini tashkil etuvchi qadriyatli va his-tuyg'ularidan biridir[2, 58-b].

Tarbiya fani O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o'quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o'quvchilarda "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan[3, 47-b]. Mazkur tadqiqotning maqsadi — boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik va ajdodlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishning samarali pedagogik metodikasini ilmiy asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang'ich sinf sinf o'quvchilarida vatanparvarlik va ajdodlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish masalalari D.M.Farxodova[2], M.A.O'ktamova [3], M.A.Mahmudova[4], F.T.Exsonova[5], Y.U.Egamberdiyeva[6], G.G.Habibova[7] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida tushuncha, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari hamda vatanparvarlik tuyg'usi kishining o'z Vatani va uning tabiatiga, xalqiga, xalqining o'tmishdagi va

hozirgi qahramonligiga, tili va san'atiga bo'lgan otashin muhabbatini ifodalashi kabi masalalari keng yoritib berilgan.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Pedagogik kuzatish metodi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonidagi faolligi, milliy qadriyatlarga munosabati hamda tarbiyaviy mashg'ulotlarga qiziqishi kuzatildi.
2. Suhbat va savolnoma metodi. O'quvchilarning vatanga, tarixga va ajdodlarga bo'lgan qarashlarini aniqlash maqsadida suhbatlar tashkil etildi.
3. Pedagogik tajriba metodi. Vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan maxsus dars ishlanmalari, tarbiyaviy tadbirlar hamda interfaol metodlar sinovdan o'tkazildi.
4. Tahlil va umumlashtirish metodi. Tajriba jarayonida olingan natijalar tahlil qilinib, metodik xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida olib borilib, dars jarayonida milliy qadriyatlarga asoslangan didaktik materiallardan foydalanildi.

O'quv jarayonida tarixiy meros, milliy qadriyatlar va buyuk ajdodlar faoliyatini tizimli ravishda qo'llash orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, Vatanga sadoqat, tarixiy xotira va ma'naviy mas'uliyat tuyg'ularini shakllantiriladi[8]. Bu metodika o'quvchilarning nafaqat bilimini oshirish, balki ularning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O'quv materiallari tarixiy faktlar va manbalarga asoslanishi kerak. Bunda buyuk ajdodlar faoliyati real tarixiy voqealar bilan bog'lab tushuntiriladi. Masalan: Amir Temur davridagi davlat boshqaruvi, Mirzo Ulug'bekning ilmiy faoliyati, Alisher Navoiyning ma'naviy merosi. Dars jarayonida xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini va ma'naviy merosiga alohida e'tibor qaratiladi. Bu o'quvchilarda o'z millatiga hurmat va faxr tuyg'usini shakllantiradi. Masalan: mehmondo'stlik, kattaga hurmat, oilaviy qadriyatlar, ilmga intilish.

O'zbekiston hududida yetishib chiqqan buyuk allomalar va davlat arboblari faoliyati yosh avlod tarbiyasida muhim manba hisoblanadi. Jumladan, Amir Temur davlat boshqaruvi va strategiyasi bilan, Mirzo Ulug'bek ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi bilan, Alisher Navoiy esa ma'naviy-madaniy merosi bilan yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Mazkur tarixiy shaxslar faoliyatini ta'lim jarayoniga integratsiya

qilish o'quvchilarda milliy qadriyatlarni anglash va ularga hurmat bilan qarashni shakllantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Tarixiy shaxslar misolida tarbiya

O'quvchilarga buyuk ajdodlar hayoti va faoliyati haqida hikoyalar, sahna ko'rinishlari va prezentatsiyalar orqali ma'lumot berish ularda milliy faxr tuyg'usini kuchaytiradi.

2. Milliy qadriyatlarga asoslangan darslar

Ona tili, o'qish, tarbiya va tarixga oid mashg'ulotlarda milliy an'ana, urf-odat va qadriyatlarni aks ettiruvchi materiallardan foydalanish o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitadi.

3. Interfaol metodlardan foydalanish

"Aqliy hujum", "Klaster", "Rol o'ynash", "Bahs-munozara" kabi metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi[9].

4. Tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish

"Vatan himoyachilari kuni", "Ajdodlar merosi", "Milliy qahramonlar" kabi tadbirlar orqali o'quvchilar tarixiy shaxslar faoliyati bilan yaqindan tanishadilar.

5. Oila va maktab hamkorligi

Vatanparvarlik tarbiyasida ota-ona va maktabning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Oilada milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish maktabdagi tarbiyaviy ishlarni yanada mustahkamlaydi[10].

Boshlang'ich ta'lim jarayonida vatanparvarlik tarbiyasi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Bu jarayon o'quvchilarning hissiy tajribasi, ijtimoiy faoliyati va shaxsiy munosabatlari orqali shakllanishi muhimdir. Mashhur fin pedagogi R.Nevanlinna bu borada shunday deydi: —Yaxshi dars berishning usullari juda ko'p, yomon dars berish usullari undan ham ko'p; eng yomon usul —zerikarli dars berishdir. Shunday ekan dars metodlarini tanlashda o'quvchilarning psixik faoliyati, qobiliyatlarini hisobga olishimiz kerak. 1-sinf tarbiya darsligi mavzular

ro'yxatida Vatanparvarlikka bag'ishlangan 1-mavzu: —"Vatan ishonchi" mavzusi 1-sinfqa qadam qo'ygan o'quvchilarning vatan tushunchasi darajasini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish vazifalasi turadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar milliy tarix va ajdodlar faoliyati bilan tanishgan sari ularda vatanga sadoqat, milliy g'urur va tarixiy xotiraga hurmat hissi kuchayadi. Ayniqsa, interfaol metodlar orqali tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Multimedia vositalari, video materiallar va tarixiy manbalardan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi hamda tarbiyaviy jarayonning samaradorligini kuchaytiradi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik va ajdodlarga hurmat tuyg'usini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

- milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim metodlari vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini oshiradi;
- tarixiy shaxslar faoliyati misolida olib borilgan tarbiyaviy ishlar o'quvchilarda milliy g'urur hissini shakllantiradi;
- interfaol metodlar o'quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirib, faol ishtirokini ta'minlaydi;
- oila va maktab hamkorligi vatanparvarlik tarbiyasining muhim omillaridan biridir.

Shu bois boshlang'ich ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasiga qaratilgan innovatsion pedagogik metodlarni keng qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021, 5-b.
2. Farxodova D.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari, IQRO jurnali/ 2023, [https:// wordlyknowledge.uz](https://wordlyknowledge.uz), 58-b.
3. O'ktamova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash // Inter education & global study. 2024. № 1. B. 47 doi:10.24412/2992- 9024-2024-2-44-52
4. Maxmudova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601, P 793-796.

5. Exsonova F.T. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari, MODERN EDUCATION AND DEVELOPMENT 2025, <https://journalss.org/index.php/mod/issue/view/153>
6. Egamberdiyeva Y.U. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlarning ahamiyati, Vol. 2 No. 4 (2025): INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION, 137-139.
7. Habibova G.G. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiylashda sinfdan tashqari ishlar. <https://cyberleninka.ru>
8. Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2015, 112-b.
9. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 23-b.
10. Quronov M. Milliy tarbiya asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2014, 89-b.